

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKIL ETISH MAZMUNINI KLASTERLI YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Toshpo‘latov Elyor Baxtiyor o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: elyortoshpolatov89@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada “ta’lim klasteri” atamasining pedagogik ma’nosi, keltirilgan manbalar harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish, jismoniy tarbiya sohasidagi asosiy yo‘nalishlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy qarashlar, kreativ yondashuvlar, usullarni shakllantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport, klaster, kreativ, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, innovatsion faoliyati, kreativlik, texnologik yondashuv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИГР-ДЕЙСТВИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация: В данной статье раскрывается педагогическое значение термина «образовательный кластер», приводятся источники об организации и проведении игровых действий, научных взглядах, творческих подходах, формировании методов совершенствования основных направлений в области физкультура.

Ключевые слова: физическое воспитание и спорт, кластер, творчество, здоровый образ жизни, педагогическая деятельность, педагогическое мастерство, инновационная деятельность, творчество, технологический подход.

IMPROVING THE CONTENT OF THE ORGANIZATION OF ACTION GAMES FOR FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON CLUSTER APPROACHES

Annotation: this article reveals the pedagogical meaning of the term "educational cluster", provides resources on the organization and conduct of game actions, scientific views, creative approaches, the formation of methods for improving the main directions in the field of physical education.goes.

Key words: physical education and sports, cluster, creative, healthy lifestyle, pedagogical activity, pedagogical skill, innovative activity, creativity, technological approach.

Мавзунинг dolzarbligi. Ta'lim tizimi dunyo taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanishning muhim omil sifatida qaraladi. Uni takomillashtirish va sifatli tashkil qilish, ta'lim oluvchilarga kafolatlangan bilim berish mexanizmlarini o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga joriy qilish ustivor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yetakchi ta'lim muassasalari tomonidan bo'lajak kadrlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yuzasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari aholining boshqa ijtimoiy guruhlariga nisbatan atrof-muhitning salbiy omillari ta'siriga ko'proq beriluvchan, turli xil kasalliklardan aziyat chekuvchi alohida xarakterga ega guruh hisoblanadi hamda jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarliklari turli darajada bo'lishi bilan tavsiflanadi. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport fanini o'qitishda shug'ullanuvchilar organizmiga mashg'ulotlar ta'sirini o'rganish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining solomatligi va jismoniy tayyorgarligi holatini aniqlab o'quv-mashg'ulotlar jarayonini tashkillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ta'lim klasteri muhitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining solomatligini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishlarini oshirish zamon talablaridan biriga aylandi. O'tkazilgan tajribalarda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga jismoniy tarbiya fanini o'qitish jarayonida ularning jismoniy rivojlanish dinamikasini oydinlashtiruvchi, salomatliklaridagi salbiy o'zgarishlar darajasiga muvofiq ravishda manzilli, aniq maqsadni nazarda tutuvchi klaster-modulli o'qitish tizimini yaratish yuzasidan ilmiy izlanishlar yetarlicha o'tkazilmagan [1, 280].

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, klaster bu bir-biriga bog'langan va birbiriga bog'liq bo'lgan elementlarni ma'lum bir maqsad uchun birgalikda ishlaydigan yagona tashkiliy tuzilishga birlashtirilgan turli sohalardagi faoliyat yurituvchi subyektlar majmuidir. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish"¹ alohida ta'kidlangan. Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalaridatahsil olayotgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining soni yildan yilga ko'paymoqda va ularning aksariyati o'quv dasturlarida belgilangan yuklamalarni bajarishga to'liq holatda tayyor emas. Jismoniy tayyorgarligi past bo'lgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентга Ш.М.Мирзиёевнинг "Жисмоний тарбия ва оммаваий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПК-3031-сонли Қарори Lex.uz.

tomonidan mashg'ulotlar rejimi doirasida tuzilgan o'quv mashg'ulotlari dasturlarini bajarilishi qiyin bo'lmoqda. Bunga sabab, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi me'yoriy testlar o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Mazkur holat turli darajadagi jismoniy rivojlanganlikka va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan yangi klaster-modul metodini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli Qarori, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarorida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini ta'minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlar o'quvchilarda xalqning madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada kengaytiradi, ularni hozirgi hayotga singdirishga yordam beradi. Chunki harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, o'quvchilarda aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvafaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatlari kabi jihatlari ham e'tibor berish zarur. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari jismoniy tarbiyasini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan harakatli o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak.[2, 22].

Istiqlol davrida, ayniqsa, jismoniy tarbiya va sportga e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Jismoniy tarbiya oldida asosiy vazifa sportni xalqimizning hayotiga ko'proq singdirish; yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning barcha turli-tuman shakllaridan, jumladan, xalq milliy harakatli o'yinlaridan keng foydalanish, yoshlarning sog'ligini yaxshilash, ularni ona-Vatan mudofaasiga tayyorlash singari katta vazifalar turibdi. Shu boisdan ham harakatli o'yinlar esa ana shu maqsadda juda keng qo'llanilib kelinayotgan jismoniy tarbiya va sportning muxim vositalaridan biridir. Shuning uchun harakatli o'yinlariga e'tiborni kuchaytirish zaruriyati bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir [3, 3-5].

Yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis, sog'lom, Vatan himoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o'sib-ulg'ayishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, Buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy harakatli o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga

e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liq tarzda maktabda o'qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlangan ishini oxiriga etkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi [4, 146].

Harakatli o'yinlar o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati beqiyos. O'yin bolaning qiziqishini oshiradi, unga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatining tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yin tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar. Harakatli o'yinlar bolalarning organizmlariga yaxlit holda ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi mashq sifatida qarash lozim. Harakatli o'yinlar jismoniy sifatlarini rivojlantirishida asosiy vosita bo'lib hisoblanadi.

Harakatli o'yinlarini to'g'ri bajarish bolaning mushagi, paylari, bo'g'imlari, suyak tizimining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Puxta shakllantirilgan harakat malakasini amalda qo'llash bilan, o'yinlarni bajarish chog'ida bola kuchini tejashga va uning e'tiborini o'yin faoliyati paytida tasodifan sodir bo'luvchi turli-tuman vazifalarni idrok qilishga imkon yaratadi.

Harakatli o'yinlarini o'rgatish jarayonida axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Harakatli o'yinlarini bajarish chog'ida bolalar harakatida ijobiy (hamjihatlik, intizomlilik, kamtarinlik, mehribonlik) va ma'naviy fazilatlar (halollik, odillik, do'stlik tuyg'usi, hamkorlik, zamon bilan hamnafas bo'lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarish)ni tarbiyalash, shuningdek, irodaviy xususiyatlar (jasorat, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan engish, chidamlilik va hokazolar)ni namoyon qilish uchun eng yaxshi sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi [5, 191].

Xulosa. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida harakatli o'yinlarni tashkil etish mazmunini klasterli yondashuvlar asosida takomillashtirish ta'lim muassasalarida mavjud nazariy yondashuvlar, pedagogik vosita va innovatsion ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirish, pedagoglar yoshlarning o'sish va rivojlanishi qonuniyatlarini bilishi, o'quvchi-yoshlarni yosh xususiyatlariga qarab aqliy va jismoniy ish bajara olishi, tibbiy-gigenik qoidalariga rioya qilgan holda o'quv maskanlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini tog'ri yo'lga qo'yishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.I. Muxamedov, U.N.Xojamqulov, S.A.Toshtemirova. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri / monografiya-T.: Universitet, 2020. 280-b.
2. Arslonova M.A. Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish. Ped.fan.nom... . diss. Avtoref. -Toshkent: 2009. -22 b.

3. Salamov R.S. O'quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida harakatli o'yinlar. // Fan sportga. -Toshkent, 2005. -№ 1. -B. 3-5.
4. Salimov G'.M. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi. Diss.... ped. fan. nom. - Toshkent: 2007. -146 b.
5. Usmonxo'jaev T. S., Meliev X. Milliy harakatli o'yinlar. -Toshkent: O'qituvchi, 2000. - 191 b.